

MAXSUS TA'LIM MUASSASASI BOSHLANG'ICH SINFDAGI TA'LIM  
JARAYONINI O'QUVCHILARDAGI MILLIY ODOB KO'NIKMALARINI  
SHAKLLANTIRISHDAGI IMKONIYATLARI

Turdaliyeva Munavvara Ixtiyorjon qizi  
*Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

Maxsus ta'limda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Milliy odob tarbiyasi, ma'naviy-ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya ham maxsus ta'limning boshlang'ich sinf bosqichida ustuvor o'rin egallashi lozim. Bunda o'quv materialini shaklida berilgan ta'limiy matnlar, didaktik mashqlar, o'quv topshiriqlari yordamida o'quvchilarda turli shaklda axloqiy ma'naviy tarbiya va milliy odob, milliy nafosat me'yorlari, umuminsoniy qadriyatlarini singdirish nazarda tutiladi. Maxsus boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish fani ta'limning ahamiyati beqiyosdir. O'qish ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olishga milliy odob ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Milliy odob tushunchalari o'quvchilarni safarbar etish, ilhomlantirish, buyuk kelajak sari chorlash uchun ahamiyati, ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni va roli uning hayot haqiqatlariga, real borliq hamda xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi. Shunga qaramay o'quvchilarda milliy odob ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga "mafkuraviy tarbiya" ham alohida ahamiyatga ega. Ma'naviy tarbiya- inson, ijtimoiy guruh, millat va jamiyat dunyoqarashini shakllantirish, ularda muayyan maqsadlarini ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lsa, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi. G'oyaviy tarbiyani berishda esa badiiy asarlarning o'rni beqiyosdir. Maxsus ta'lim muassasasining boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qilgan asarlarni tahlil qilish jarayonida matnni o'qibgina qolmay balki undan ta'sirlanadilar.

O'qish darslarida o'quvchilarda milliy odob ko'nikmalarini rivojlantirishda asarni tahlil qilish va uning hissiy ta'sirini ham hisobga olish zarur. O'quvchi matnni o'qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlanishi, o'quvchilarda milliylik to'g'risida fikr uyg'otishi, ularda estetik didni tarbiyalashga hizmat qilishi lozim. Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi"da turli janrdagi ertak va hikoyalar berilgan. Bizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqealarni obrazlar vositasida tasvirlash, ob'yektiv mazmun va sub'yektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Birinchidan, asar ustida ishlashni muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqealarni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga hos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqealar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondashilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin.

Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir.

Badiiy asar orqali milliy odob ko'nikmalarini rivojlantirish murakkab jarayondir. Uning pedagogik jihatlari shundaki, o'qituvchi o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi. Badiiy asarda barcha komponentlar o'zaro bog'langan bo'ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qahramonlarning yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qishini, idrok etishni, ya'ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o'qilgandan so'ng analiz qilinadi, so'ng yana yuqori sifatli sintezga o'tiladi. Asarni o'qishga kirishishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga, milliylikka oid tushunchalarni shakllanishi hamda rivojlanishiga tayyorlash lozim bo'ladi. Demak, tayyorgarlik davri- sintez-analiz-sintez jarayonini beradi. O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1. Maxsus ta'lim o'quvchilarining asarda aks ettirilgan milliylikka asoslangan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarni boyitish, milliy odob tushunchalarini ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatishlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga ijodiga qiziqish uyg'otish.

3. O'quvchilarni asardagi milliy odob-axloqqa doir tushunchalarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beriladigan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishdan iborat. Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo'lib, o'qituvchi asar mazmunini va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi.

5. Film namoyish qilish. Milliy odobga doir o'zbek hayoti voqealari tasvirlangan bolalar uchun mo'ljallangan filmlarni namoyish qilish orqali o'quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Albatta, hozirgi vaqtda milliy odob-axloqqa doir o'quv filmlari kam bo'lsada ammo videofilmlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

6. O'qituvchi hikoyasi. Asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali metod hisoblanadi. Chunonchi, S.Raxmonning "Dehqon" she'ri o'rganilyotganda shoirning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma'lumot so'zlab berilsa, o'quvchilarning asar mazmunida berilgan milliylikka yoki odob-axloqqa doir qiziqishlari ortadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha "Milliy odob" ko'p qirrali tushunchadir. Uning:

- Milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat;
  - Umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;
  - Xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (UNESKO tamoyili) vositasi;
  - Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy rivojlantirish jarayonining ma'anaviy manbayi;
- O'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologik, va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Muhtorova, M. B., and Islomova Zahrohon. "O 'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 130-137.
2. Muxtorova, M. B., and Toshkentbayeva Nafosat. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING QONUNY KAFOLATLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 124-129.
3. Muhtorova, Maftuna, and Gulmira Avazxonova. "MAXSUS TA'LIM MUASSASALARIDA BOLA HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHNING AMALDAGI XOLATI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 92-97.
4. Muxtorova, M. B., and Muhammadjonov Shoxrux. "O 'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISH ASOSLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 87-91.
5. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "DEFEKTOLOGLARNI OILA BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHDA SHARQ MUTAFFAKIRLARINING QARASHLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 104-111.
6. Raxmonovna, Kabirova Zarnigor. "DISGRAFIYADA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 98-103.
7. Islomjon, Haydarov. "ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR HISSIYOTINING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 112-116.
8. Xovodillayev, Murodjon. "LOGOPEDIK MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISHDA O'YINLARNING KORREKSION AHAMIYATI." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 117-123.
9. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Contents of Logopedic Rhythm Exercises Conducted with Children Who Stutter." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 36-39.
10. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "Methodology of Memory Development in the Process of Working on the Passive and Active Vocabulary of Children with

Undeveloped Speech." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 40-44.

11. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATINING TURLARI VA XUSUSIYATLARI." Confrencea 12.12 (2023): 162-168.

12. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "BOLALARDAGI NUTQIY RIVOJLANISHNING BUZILISHLARI VA NUTQNING TOLIQ RIVOJLANMAGANLIGI." Confrencea 12.12 (2023): 102-108.

13. Raxmonovna, Kabirova Zarnigor. "DISGRAFIYADA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 98-103.

14. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Babayeva Azizabonu Hamidjonovna, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "TEACHING SPEECH FORMATION TO PRESCHOOL-AGE DYSARTIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 52-55.

15. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Havodullayev Murodjon, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "ORIGIN OF DYSLALIA AND WAYS OF ITS ELIMINATION." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 48-51.

16. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, and Babayeva Azizabonu Hamidjonovna. "USE OF WORD FORMATION MODELS IN DYSARTHIC CHILDREN." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 61-64.

17. Zarnigor, Kabirova, Erkaboyeva Ozoda, and Raimjonova Gulsanam. "MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR IDROKINI TEKSHIRISH YO'LLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

18. Daughter, Husanova Iroda Ulugbek. "LOGOPEDIC WORK WITH DYSARTHIC CHILDREN." Science Promotion 1.1 (2023): 117-122.

19. Muhammadjonova, Dilafuz. "Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardning sezgi va idrok xususiyatlarning o'ziga xosligi." Science promotion (2023).

20. Muhammadjonova, Dilafuz. "ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHING WEAK HEARING CHILDREN TO WRITE." Science promotion (2023).

21. Muhammadjonova, Dilafuz. "SPEECH DEVELOPMENT OF DEAF CHILDREN." GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) (2023).

22. Solievna, Mirbabayeva Nodira, and Abdusalomova Feruza Shokirjan Daughter. "PROTECTION OF THE RIGHTS OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN OUR REPUBLIC." Science Promotion 1.1 (2023): 51-56.

23. Soliyevna, Mirboboyeva Nodiraxon. "Thoughts about The Stages Of Development Of Oligophrenopedagogy And Mental Retardation." Confrencea 7.7 (2022): 102-105.

24. Mirbabayeva, Nodiraxon, and Sarvinoz Siddiqova Sarvinoz. "AQLI ZAIF BOLANING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TASNIFI." Current approaches and new research in modern sciences 2.6 (2023): 32-36.

25. Islomjon, Haydarov, and Odilova Rushanabonu. "ORAL SPEECH AND ITS DEVELOPMENT FEATURES." Open Access Repository 9.11 (2023): 206-209.

26. Islomjon, Haydarov, and Odiljonova Saminakhan. "DIFFERENTIATION OF SENTENCES IN SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN THE CONTENT AND ORDER OF THE WORK CARRIED OUT ON." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 1071-1075.

27. Islamjan, Haydarov. "FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF HEARING-IMPAIRED STUDENTS IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN SCIENCE." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 536-540.

28. Islomjon, Haydarov. "In this article, the importance of excursions in specialized educational institutions for students with hearing impairments and ways to shape their knowledge of Natural Science through excursions. Information is provided about the corrective-pedagogical o." Onomázein hosts unpublished articles derived from scientific research 1963 (1958).

29. Zhurayevich, Yuldashev Sadirboy. "TECHNOLOGIES FOR ELIMINATING SHORTCOMINGS IN ORAL SPEECH IN LESSONS OF VISUAL ACTIVITY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 378-382.

30. Jorayevich, Yuldashev Sodikboy, and Mukhammadjonov Shahruxh Shukhratovich. "TECHNOLOGIES OF DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH IN FINE ARTS LESSONS." Academia Science Repository 4.5 (2023): 345-348.

31. Jurayevich, Yuldashev Sodikboy. "PEDAGOGICAL PROCESSES CARRIED OUT WITH CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS OF PRESCHOOL AGE." Science Promotion 1.1 (2023): 75-81.

32. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG'LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

33. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

34. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023

35. Oppakhho'jayev, Son Of Khojikhujja Azimjon. "Technologies For Developing Inclusive Readiness Of Families Based On A Competent Approach." Asian Journal Of Multidimensional Research Issn: 2278-4853.

36. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixujja. "Inclusive Education System Progress of the Process." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 199-206.

37. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." Science Promotion 1.1 (2023): 50-57

38. Turgunovna, Yuldoshova Dilbar, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "Pedagogical Mechanism Of Preparing Future Teachers For Professional Competence Formation." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2186-2191.